

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi
Raising birinchi o‘rinbosari M.M.Mirzayevning 2022-yil may
bajarilgan ishlari

Budjet daromadlari ijrosini ta‘minlash
va qo‘shimcha manbalarni jalb etish

2022-yilning may uchun belgilangan **11,3 trln.so‘m** prognoz ko‘rsatkichi **11,5 trln.so‘mga** (101,7%) bajarilib, byudjetga **190,7 mlrd.so‘m** qo‘shimcha mablag‘lar jalb etildi (tushumlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **1,2 trln.so‘mga** (111,7%) o‘sdi).

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘yicha **2022-yil may** oyi uchun **2,3 trln.so‘m** belgilangan prognoz **2,35 trln.so‘mga** yoki 102,1 foizga bajarildi.

Strategik rejalashtirish bo‘yicha

Vazirlar Mahkamasining “Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogini joriy etish va tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron rasmiylashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 28 apreldagi 249–son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi mutaxassislardan iborat tuzilgan holda, mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogi muntazam ravishda yangilanib borildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi “Majburiy raqamli markirovkalanishi lozim bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatini kengaytirish bo‘yicha tajriba loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 322-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida “Asl belgisi” Milliy axborot tizimida 6 ta dori vositalari va tibbiy buyumlarni, 5 ta suv va salqin ichimliklarni 5 ta maishiy texnika ishlab chiqaruvchi korxonalar ro‘yxatdan o‘tkazilib mahsulotlar katalogi moduliga sinov tariqasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar yuzasidan tegishli ma‘lumotlar (116 ta dori darmon, 33 ta suv sa salqin ichimlik, 762 ta maishiy texnika) joylashtirilishi ta‘minlandi.

Soliq nizolarini sudgacha hal qilish bo‘yicha

2022-yilning mayda **jami 32 ta 2,1 mlrd. so‘mlik** soliq nizosiga oid shikoyatlar kelib tushgan bo‘lib, ularning barchasini belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi ta‘minlangan.

Xususan, bugungi kun holatida kelib tushgan shikoyatlar soliq to‘lovchi vakillari bilan hamkorlikda ko‘rib chiqilib, **3 ta 0,9 mlrd. so‘mlik** murojaatda soliq to‘lovchining pozitsiyasi qanoatlantirilgan.

Shuningdek, **29 ta 1,2 mlrd.so‘mlik** murojaat bo‘yicha davlat soliq xizmati organlari qarorlari o‘z kuchida qoldirildi va bu haqda belgilangan tartibda tushuntirishlar berildi.